

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MA'NAVIY
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

2-bosqich magistri

Umaraliyeva Iroda Qudrat qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish mazmuni, boshlang'ich sinf o'qituvchilarda ham ma'naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о содержании формирования показателей духовного образования у учащихся начальных классов, формировании показателей духовного образования у учителей начальных классов.

Annotation: This article talks about the content of formation of indicators of spiritual education in primary school students, formation of indicators of spiritual education in primary school teachers.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, tarbiya, axloq, oila, ta'sir, odob, qadriyatlar, jamiyat, tarbiya, hamkorlik, muhit.

Ключевые слова: Духовность, образование, мораль, семья, влияние, нравы, ценности, общество, образование, сотрудничество, окружающая среда.

Key words: Spirituality, education, morality, family, influence, manners, values, society, education, cooperation, environment.

KIRISH

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun o'quvchilar ongida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish, ular ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirish, o'quvchilarning oilaviy muhitiga alohida e'tibor

qaratilishi lozim. Shu bois yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning strategik maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, qadriyatlar asosida barkamol shaxs ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantish, axborot-kommunikatsiyalari vositasida o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari rivojlanganligini tashxis etishning interaktiv tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSH, Fransiya kabi bir necha mamlakatlarda barkamol shaxsga xos fazilatlar majmuining ishlab chiqilganligini alohida e'tirof etish lozim. Bilamizki, oila muqaddas qo'rg'on. Har bir oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shunday ekan, har bir o'quvchi asosiy tarbiyani o'z oilasidan oladi. Bola shaxsini rivojlantirishda oilaning o'rni juda muhim ahamiyatga egadir. Oilada olingan tarbiya bola hayotining ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Asosiy qisim. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolada taassurotlar turli xil bo'ladi. Avvalmbor, o'qituvchilardan bola ongida maktab muhitini shakllantirish va o'sha muhitga olib kirish talab qilinadi. O'qituvchi tomonidan bola tarbiyasidagi kamchilik va nuqsonlar, ijobiy va salbiy xususiyatlari o'rganiladi va yechim topishga harakat qilinadi. O'quvchilarni psixik jihatdan to'la o'rganish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchidan sabr, mashaqqat va anchagina vaqt talab qiladi. Buning uchun o'qituvchilar oila bilan hamkorlikda o'quvchi tarbiyasidagi ma'naviy-axloqiy, ta'limiy va tarbiyaviy nuqsonlarni tuzatishga harakat qilishlari lozim. Shundagina bu harakatlar o'z samarasini beradi. Chunki har bir bola o'z oilasida o'zini yaxshi, baxtli his etsagina uning tarbiyasida ham, ta'lim samaradorligida ham ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Bola oilaning yuzi hisoblanadi. Uning tarbiyasi, o'zini tutishidan oiladiga muhitning qanday ekanligini bilib olishimiz mumkin.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili

asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim – tarbiya tizimidan boshlanadi" degan g'oyalari asosida keng ko'lamli islohotlarni ishlar amalga oshirilishi haqida ta'kidlab o'tdilar. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim. Yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish yo'lga qo'yish, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar, insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarning safarbar etilishi, o'quvchi-yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Maktab va oila hamkorligi har doim samarali bo'lgan. O'quvchining ta'lim va tarbiya olishi maktab tomonidan to'la qonli ta'minlanishi uchun oila hamkorligi kerak bo'ladi. Boladagi kamchiliklarni o'qituvchi bilan birga ota-onada ham to'ldirishi va nazorat qilishi ta'lim jarayonidagi juda muhim masaladir. Bu hamkorlik o'quvchidagi muammoli nuqtalarni tezda anqilashga va ijobiy yechim topishga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya -yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar,adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rmishida aks etadigan asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ulaming xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, histuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlami shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining


mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ulaming ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqinitarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilami axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlami tarbiyalash ;
- 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ulami tarbiyalash;
- 3) axloqiy xulq-atvor.ko'mkmalarini shakllantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma'naviyaxloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish; o'quvchilaming faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliligi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; oila, ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; o'quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.Yangi islohotlar amalga oshirilib rivojlanayotgan bir davrda mamlakatimiz miqyosida ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlamoq joiz. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi

O'zbekistonda yangi g'oyalar va rejalar bilan hamohang qadam qo'ymoqdamiz. Bu ildam qadamlarimiz yaqin kelajakda o'zining istiqbolli natijalarini ko'rsatadi. Jamiyatimizdagi keng qamrovli islohotlarda ham o'zining samarasi ko'rsatmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-sون "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiya"sin tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Konsepsianing maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot

uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi 4 (1-rasm):



1-rasm. Ma'naviy tarbiyaning vazifalari.

Unga ko'ra, ayniqsa yoshlар tarbiyasi bilan bog'lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash; ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onा, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash kabi bir necha ustuvor yo'nalishlar ko'rsatilgan.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiyani shakllantirish oz navbatida, pedagoglarning o'zlarining ham ma'nan yetuk bo'lishlarini, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasini hamda maktab ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish metodikasini chuqur o'zlashtirib olishlarini taqozo etadi. Shu munosabat bilan ta'limning ilk bosqichidan boshlab

o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning izchil tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ma'naviyatini yaxlit tizim asosida shakllantirish uchun o'quv materiallari mazmunini boyitish, ularga ko'proq bolalarning ma'naviy olamini boyitadigan badiiy, tarixiy asarlar, o'zbek va jahon xalqlari ertaklari, qissa va hikoyalari o'qishni tavsiya etish, tarixiy yodgorliklarga ekskursiyalar uyushtirish, yozuvchi, shoirlar, olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-som Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-som
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Oliy majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.
3. R.Mavlonova, N.Vohidov, N.Rahmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" "Fan va etxnologiya" nashriyoti. Toshkent 2010-yil 324-bet.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati" T.: A.Sherov, A.Xolbekov, M.G'afforova va boshq. 2009 yil. 396 bet.
5. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8.–C.160-167.
6. Rustamovich T. A. Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy журнали. – 2021.–T.1.– №.5.– C.186-190.
7. Yuldashev Tojiddin Abdukarimovich; Urozov Fakhreddin Isokovich; Shomurotov
- 8.Ulug'bek Melikmurodovich. FORMATION OF A RELATIONSHIP OF Responsibility to the family in young people. Euro.J.Hum. Edu. Adv.2023,4,38-40.
- 9.Yuldashev Tojiddin Abdukarimovich, & Shomurodov Ulug'bek Melikmurodovich. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1–4. Retrieved from <http://www.scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/70>